



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
FARG'ONA VILOYATI FILIALI**

Manzil: 105150, Farg'ona shahar, Sakkokiy ko'chasi, 39/41, Tel: 73-244-64-94

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/12-2701

HUJJAT TURI Ifloslantiruvchi moddalarning atmosferaga chiqariladigan yo'l qo'yiladigan cheklangan tashlanmalarining ekologik normativlari loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: BURGUT BARAKA OIL MCHJga berildi.
STIR: 306205830

Obyekt nomi: O'zbekiston tumani Tuyul mahalla fuqarolar yig'ini Muqumiy ko'chasi 101 - uyda joylashgan "Burgut Baraka Oil" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga qarashli avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchasi (AYOQSH) uchun "Ruxsat etilgan chegaraviy tashlamalar" (RECHT) me'yoriy loyihasi.

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "FERGANA EKO PROYEKT" MAS'ULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT**
STIR: 305146272

**Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: XOLMATOV FARXODJON
ABDULLAYEVICH**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifa toifasining 3-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**
Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 11.04.2025

Amal qilish muddati: 11.04.2030

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



M.Babaxodjayev

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

Agar obyektدا ifloslantiruvchi moddalarning (texnologiyalarni o'zgarishi, yoqilg'i tarkibi o'zgarishi, manba va qurilmalarning) qayta qurilishi, tashlamalar miqdori o'zgargan taqdirda, o'rnatilgan me'yor "Ruxsat etilgan chegaraviy tashlamalar" (RECHT) o'z kuchini yo'qotadi, bu holda me'yoriy xujjat yangidan ishlab chiqilib, Davlat ekologik ekspertizasi markaziga belgilangan tartibda qaytadan taqdim etilishi shart;

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarishning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlariga rioya etish;

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarishni kamaytirish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, ularning hisobini yuritishi va statistika hisobotini taqdim etish;

Belgilangan tartibda, ifloslantiruvchi manbalardan atmosfera havosiga tashlanadigan zararli moddalarni belgilangan me'yorlarga mosligini laboratoriya usulida ishlab chiqarish nazoratini o'tkazib turilishi shart;

Agar obyektدا ifloslantiruvchi moddalarning (texnologiyalarni o'zgarishi, yoqilg'i tarkibi va sarflanish miqdori o'zgarishi, manba va qurilmalarning qayta qurilishi, kengaytirilishi va boshqa) tashlama miqdorlarini o'zgarishi yuz bergan taqdirda, o'rnatilgan ekologik normativ (RECHT) o'z kuchini yo'qotadi, bu xolda me'yoriy xujjatlar yangidan tayyorlanib, Davlat ekologik ekspertizasi markaziga belgilangan tartibda qaytadan taqdim qilinishi shart;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-oktyabrdagi "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 202-sonli qaroriga asosan firma faoliyatidan xosil bo'ladigan chiqindi va tashlamalar uchun to'lovlar belgilangan muddatda amalga oshirilishi shart;

Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar;

“Ekologik ekspertizasi to'g'risida”gi qonuni 9-moddasi, 3-bandiga muvofiq ekologik ekspertizasi buyurtmachisi yuqorida ko'rsatilgan ekologik talablari bajarishi shart.

Agarda buyurtmachi davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko'rsatilgan talablarga rioya etmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli “Atrof muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarorining 7-bob 57-bandida xulosani amal qilishini to'xtatishi belgilab qo'yilgan.

Eslatma:

Obyektdan foydalanish davrida hududda mavjud bo'lgan manzarali va ko'p yillik daraxtlarga zarar yetkazilmasin hamda ularni noqonuniy kesilishiga yo'l qo'yilmasin. (asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlangan haqida”gi PF-5863-sonli farmoyishiga asosan daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-sonli farmoniga asosan Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-199-sonli Farmoni 15 bandiga muvofiq 2024-yil 1-martdan yangi quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metrdan baland va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlar, agar ularga tutash hududlardagi yerlarning kamida 25 foizi ko'kalamzorlashtirish maydonlariga ajratilmagan va ularda ko'kalamzorlashtirish tadbirlari amalga oshirilmagan taqdirda, davlat qabul komissiyasi tomonidan qabul qilinmasligi belgilab qo'yilganligi sababli **“Yashil belbog”** tashkil etilsin.



Ma'sul ekspert: XOLMATOV FARXODJON ABDULLAYEVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat muassasi Farg‘ona filialiga taqdim qilingan ushbu obyekt bo‘yicha tayyorlangan “Ruxsat etilgan chegaraviy tashlamalar” (RECHT) me‘yoriy loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli “Atrof muhitga ta‘sirini baxolash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasiga asosan atrof muhitga ta‘sir ko‘rsatishi yuzasidan 3-toifa 3-bandiga mansub (past darajada xavfli) faoliyat turiga kiradi.

Me‘yoriy loyihani ishlab chiqishdan maqsad, atmosferani ifloslantiruvchi moddalar tashlamasi manbaalarini ro‘yxatga olish, ularni ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rish, atmosfera xavosini ifloslantiruvchi zararli moddalarga xarakatdagi ko‘llanmalarga asosan ekologik me‘yor o‘rnatishdan iborat.

“Burgut Baraka Oil” ma‘suliyati cheklangan jamiyatiga (“Humodil Servis” xususiy korxonasiga tegishli bo‘lgan 2020-yil 01-maydagi №1-sonli binoni ijaraga berish shartnomasiga asosan ijaraga olib foydalanilayotgan) qarashli avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchasining birlamchi xujjatlari uchun Davlat ekologik ekspertizasining (“Ruxsat etilgan chegaraviy tashlamalar” (RECHT) loyihasi uchun 2013-yil 19-sentyabr kuni 2668-sonli) ijobiy xulosasi olingan.

Xulosaning amal qilish muddati tugagnligi sababli avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchasida xatlov o‘tkazildi. Bu tadbir “Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi 14-sonli qaroriga asosan takroran ishlab chiqildi.

Ushbu loyihaning xatlovdan o‘tkazish (inventarizatsiya) qismi Farg‘ona viloyati Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqamasiga tomonidan ko‘rib chiqilib, 2025-yil 18-mart kungi 01/10-784-sonli xati bilan davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazishga tavsiya etilgan. (loyixaga Ekalogiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarirshi boshqarmasi O‘zbekiston tuman inspeksiyasining obyektini o‘rganish ma‘lumoti ilova qilingan)

Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchasi Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani Tuyul mahalla fuqarolar yig‘ini Muqumiy ko‘chasi 101 - uyda joylashgan. AYOQSHning joylashgan joyi tekistlikdan iborat. Korxona egallagan xudud 0,149457 ga (yoki 1494,57 m²) iborat.

Obyekt yer maydoni joylashuviga ko‘ra

shimol va g‘arb tomondan - mevazor bog‘ maydoni, janub tomonida-mahalliy yo‘l xamda sharq tomonda-“Sho‘rsuv-Yaypan” avtomobil yo‘li bilan chegaralangan. Korxona xududiga asosiy kirish “Sho‘rsuv-Yaypan” avtomobil yo‘lidan amalga oshiriladi.

Axoli yashash joyigacha bo'lgan eng yaqin masofa 22 metr (eng yaqin manba tarqatish kolonkasigacha 45 metr) bo'lib, obyektning janub tomonida joylashgan.

Obyektning geografik joylashuv koordinatalari:

1. 40. 21 6. 35 SHK	70. 47 54.28 SHU,
2. 40. 21 7. 25 SHK	70. 47 53.57 SHU,
3. 40. 21 8. 23 SHK	70. 47 54.31 SHU,
4. 40. 21 8. 19 SHK	70. 47 54.59 SHU,
5. 40. 21 8. 27 SHK	70. 47 54.61 SHU,
6. 40. 21 8. 43 SHK	70. 47 55.25 SHU,
7. 40. 21 8. 43 SHK	70. 47 55.98 SHUda joylashgan.

“Burgut Baraka Oil” ma'suliyati cheklangan jamiyatiga qarashli avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchasi umumiy 1494,57 m² yer maydonni egallagan. Shundan bino-inshootlar egallagan maydoni - 269,84 m²ni, qattiq to'shamali maydon - 350,0 m²ni, ko'klamzorlashtirilgan maydon - 874,73 m²ni tashkil qiladi.

Shaxobchada 6 kishi yil davomida uch navbatdan 8 soatdan 365 kun ishlashi belgilangan. Korxona ixtiyorida avtotransport vositalari mavjud emas.

Shaxobcha hududida neft maxsulotlarini qabul qilish va saqlash maydoni neft maxsulotlarini tarqatish maydoni, operator xonasi hamda boshqa yordamchi binolar mavjud.

Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun shaxobcha hududida: benzin saqlash uchun 10 m³ xajmli sig'im - 2 ta, benzin saqlash uchun 5 m³ xajmli sig'im - 1 ta, dizel yoqilg'isi saqlash uchun 25 m³ xajmli sig'im - 2 ta, benzin tarqatish kolonkasi, markasi “Censtar”-1 ta (ikki dona tarqatish yengidan iborat), benzin tarqatish kolonkasi, markasi “NARA-27M”-1 ta, dizel yoqilg'isini tarqatish kolonkasi, markasi “Censtar”-1 ta (bir dona tarqatish yengidan iborat), dizel yoqilg'isi tarqatish kolonkasi, markasi “NARA-27M”-1 ta, xajmi 100 m³ li yong'inga qarshi xovuz, yong'inga qarshi jixozlangan qalqon mavjud.

Avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchasinin loyihaviy quvvati yiliga 4750,0 tonna, jumladan: Benzin - 750,0 tonna. Dizel yoqilg'isi - 4000,0 tonna

Mexnat muhofazasi, texnika va yong'in havfsizligiga amal qilgan holda shaxobcha quyidagilar bilan jixozlangan.

Neft maxsulotlari neftbazadan avtosig'implarda keltiriladi, keltirilgan neft maxsulotlari, neft maxsulotlarini qabul qilish va saqlash maydonidagi sig'implarga

quyiladi. Neft maxsulotlarini sig'implarga quyish avtosig'im nasoslari orqali amalga oshiriladi.

Transport vositalariga neft maxsulotlarini quyish neft maxsulotlari tarqatish maydoni ayvoni ostida, benzin tarqatish kolonkasi, markasi "Censtar"-1 ta (ikki dona tarqatish yengidan iborat), benzin tarqatish kolonkasi, markasi "NARA-27M"-1 ta, dizel yoqilg'isini tarqatish kolonkasi, markasi "Censtar"-1 ta (bir dona tarqatish yengidan iborat), dizel yoqilg'isi tarqatish kolonkasi, markasi "NARA-27M"-1 ta tarqatish kolonkasida amalga oshiriladi. Bu jarayon operator orqali boshqariladi.

Ushbu firma avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchasi atmosferaga jami tashlanayotgan zararli moddalar manbalarining inventarizatsiyasida 15 ta tashlama manbalar bo'lib, shundan: 10 tasi tashkillangan, 5 tasi tashkillanmagan manbalardan iborat.

1. Tashkillangan manbalar yoqilg'i saqlash sig'imi lyuki va nafas klapni - 10 dona.

2. Tashkillanmagan manba: 5 dona tarqatish kolonkalarining yenglaridan iborat.

Ushbu manbalardan atmosfera xavosiga 2 nomdagi ifloslantiruvchi moddalarning yillik tashlama miqdori, jami: 1,94625 tn/y.ni tashkil qiladi, jumladan: uglevodorodlar (benzin bug'i) - 1,58625 tn/y, uglevodorodlar (dizel yoqilg'isi bug'i) - 0,36 tn/y.ni tashkil qiladi.

Tashlamalarning maksimal yer sirtiga tarqalish (prizem) konsentratsiyasi xisoblab chiqilganda, manbaalardan tashlanadigan zararli moddalarning miqdori, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan belgilangan kvota (0,20, 0,25, 0,33) qiymatidan ortib ketmaganligi aniqlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu aniqlangan tashlamalar miqdorini ruxsat etilgan chegaraviy tashlama ekologik me'yori deb qabul qilish mumkin.

Ekologik ekspertizaga taqdim etilgan ekologik me'yoriy xujjat amaldagi qo'llanma va ko'rsatmalarga asosan bajarilgan.

Yuqoridagi talablarni bajarilishi sharti bilan, "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi Farg'ona filiali Farg'ona filiali O'zbekiston tumani Tuyul mahalla fuqarolar yig'ini Muqumiy ko'chasi 101 - uyda joylashgan "Burgut Baraka Oil" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga qarashli avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchasi (AYOQSH) uchun "Ruxsat etilgan chegaraviy tashlamalar" (RECHT) me'yoriy loyahasini maqullaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Farg'ona viloyati boshqarmasining O'zbekiston tumani inspeksiyasiga mazkur loyihada keltirilgan chora tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini monitoring qilish, tabiat muhofazasiga oid qonun talablarini bajarilishini nazoratga olish lozim bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Atrof muhitga ta’sirni baholash mexanizmining yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi №541-sonli qarori 6-bob, 47-bandiga asosan, Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi atrof muhitga ta’sirni baholash uchun uch yil muddatga, ekologik normativlar loyihalari uchun besh yil muddatga beriladi.

Ushbu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasining bergan xulosasi, berilgan kundan e’tiboran besh yil mobaynida yuridik kuchga ega.

Xulosada ko‘rsatilgan shartlar bajarilmagan va yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo‘shimcha qurilish va faoliyat turlari tashkil etilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotadi.



Ma’sul ekspert: XOLMATOV FARXODJON ABDULLAYEVICH